

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA GOLBOL SPORTINING RIVOJLANISHI
VA O‘ZBEKISTON CHEMPIONATLARIDAGI YUTUQLARI**

P.O.Qaljanov – dotsent

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

**РАЗВИТИЕ СПОРТА ГОЛБОЛ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН
И ДОСТИЖЕНИЯ НА ЧЕМПИОНАТАХ УЗБЕКИСТАНА**

П.О.Калжанов – доцент

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

**DEVELOPMENT OF GOLBALL SPORTS IN THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN
AND ACHIEVEMENTS IN THE CHAMPIONSHIPS OF UZBEKISTAN**

P.O.Kalzhonov – associate professor

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: ko‘zi ojiz sportchilar, O‘zbekiston chempionati, yoshlar sporti, paralimpik sport, jamoaviy sport, golbol musobaqasi, sportda inklyuziyasi.

Rezyume. Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida golbol sportining rivojlanish bosqichlari, sportchilarning tayyorlanishi va O‘zbekiston chempionatlarida erishilgan yutuqlari tahlil qilinadi. 2023-2024-yillardagi respublika musobaqalari natijalari asosida Qoraqalpog‘iston jamoasining sport salohiyati yoritiladi. Shuningdek, sport infratuzilmasi, yoshlar bilan ishlash tizimi va nogironlar sportini qo‘llab-quvvatlash borasidagi sa‘y-harakatlar tahlil etilgan.

Ключевые слова: спорт для людей с ограниченными возможностями, незрячие спортсмены, чемпионат Узбекистана, молодежный спорт, параолимпийский спорт, командные виды спорта, соревнования по голболу, инклюзия в спорте.

Резюме. В данной статье рассматриваются этапы развития спорта голбол в Республике Каракалпакстан, подготовка спортсменов и достижения команды на чемпионатах Узбекистана в 2023-2024 годах. На основе результатов республиканских соревнований анализируется спортивный потенциал каракалпакстанской сборной. Также освещены вопросы спортивной инфраструктуры, работы с молодёжью и поддержки спорта среди людей с ограниченными возможностями.

Key words: sports for the blind, visually impaired athletes, Uzbekistan Championship, youth sports, Paralympic sports, team sports, goalball competitions, inclusion in sports.

Summary. This article explores the development stages of goalball sport in the Republic of Karakalpakstan, focusing on athlete training and the team's achievements in the Uzbekistan championships during 2023-2024. The athletic potential of the Karakalpakstan team is analyzed based on national competition results. The paper also highlights efforts in improving sports infrastructure, youth engagement, and support for sports among people with disabilities.

Kirish. Dunyoda golbol sport turi yozgi Paralimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan eng mashhur para sport turlaridan biri bo‘lib, jahonda geografik jihatdan kengayib, ommaviylashib borayotgan sport turlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Golbol sport turi ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi sportchilar uchun nafaqat jismoniy rivojlanish, balki ijtimoiy moslashuv, ruhiy sog‘lomlanish va o‘ziga ishonch hissini oshirish vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi sportchilarni tayyorlash tizimida yuqori sport natijalarini ko‘rsatish imkoniyatlari yildan – yilga murakkablashib, yangi vosita va usullarni ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Bunda asosiy e‘tiborni golbolchilarning musobaqaoldi tayyorgarligini rivojlantirish uslubi yuzaga keltirmoqda. Xususan golbol sporti, ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi shaxslar o‘rtasida jismoniy faollikni oshirish vositasi sifatida juda keng tarqalgan. Golbol xalqaro Paralimpiya o‘yinlarining dasturiga kiritilgan bo‘lib, u jarohat yoki nogironligi bo‘lgan sportchilarga yuqori sport salohiyatini namoyon etish imkonini beradi [9].

Jahonda ko‘zi ojiz va zaif ko‘ruvchi sportchilarning yuqori natijalarga erishishi uchun ko‘p yillik tayyorgarligi tizimini rejalashtirish, o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarining uslubiy yo‘nalishini tanlash, o‘yin davomida yuqori ish qobiliyatini saqlab turishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida nogiron sportini rivojlantirish bo‘yicha tizimli siyosat amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon va “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon davlat tomonidan sportni qo‘llab-quvvatlashni mustahkamlashga qaratilgan asosiy hujjatlardir.

Shuningdek, nogironligi bo‘lgan shaxslarning sportga jalb etilishi ularning ijtimoiy moslashuvini ta‘minlabgina qolmay, sog‘lom hayot tarzini qo‘llab-quvvatlashga ham xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha, golbol sporti nafaqat jismoniy faollikni oshiradi, balki sportchilarning koordinatsiya, eshitish sezgirliigi va jamoaviy strategiya ko‘nikmalarini rivojlantiradi. C.Sherrillning tadqiqotlariga ko‘ra, nogironlar sporti ijtimoiy integratsiyaning kuchli vositasi hisoblanadi, ya‘ni sport orqali nogironlar jamiyat hayotiga faol qo‘shiladi [4].

O‘zbekistonlik olimlar esa paralimpiya sportini davlat siyosati orqali qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy ahamiyatini ta‘kidlaydi. A.A.Karimovning ilmiy ta‘rifiga ko‘ra, nogironlar sportining samarali tizimi sportchilarning individual imkoniyatlariga mos mashg‘ulotlar tashkil etishni talab qiladi [5].

Sport mashg'ulotlarining nogiron va imkoniyati cheklangan shaxslarni hayot faoliyatiga ijtimoiylashuvini tezlashtirish masalalari bo'yicha V.B.Aripova, nogironlikni ma'lum turida sport mashg'ulotlariga moslashish nazariyasi bo'yicha E.A.O'rinboyev, N.K.Svetlichnaya, F.M.Murodov, paralimpiya sportida yuqori natijalarni qayd etish bo'yicha Sh.A.Abdiyev, Z.X.Palibayeva, oliy ta'limda paralimpiya bo'yicha sportchilar tayyorlash tizimini bo'yicha M.X.Mirjamolov, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi shaxslarni golbol sport turiga tayorlash bo'yicha L.B.Sobirova va boshqa mutaxassislar tomonidan sohaga oid turli konseptual izlanishlar olib borilgan.

Huquqiy asoslar tahlili. O'zbekiston Respublikasida nogironlar sporti va paralimpiya harakatini tartibga soluvchi bir qancha asosiy hujjatlar mavjud:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi Qarori (PQ-5114-son) "Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" - bu qaror jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar sport bilan shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ularning xalqaro sport maydonlarida ishtirokini ta'minlashni belgilaydi [1].

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-noyabrdagi Qarori (PQ-389) «Nogironligi bo'lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» - ushbu qaror asosida 2024-yil 15-dekabrda boshlab nogiron shaxslar "Inson" markazlari orqali davlat sport inshootlarida bepul mashg'ulotlarga yo'llanma olish imkoniga ega bo'ladi; shuningdek, adaptive sport bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash kurslari 2025-yil 1-fevraldan yo'lga qo'yiladi [2].

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-martdagi «O'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida»gi 123-sonli qarori nogironlar va ularning biriktirilgan shaxslariga davlat sport tadbirlarida bepul ishtirok etish huquqini kafolatlaydi [3].

Natijalar. Normativ-huquqiy hujjatlar asosida Qoraqalpog'iston Respublikasida golbol sportining rivojlanishida quyidagi amaliy natijalar kuzatilmoqda:

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi «Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5114-son Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-noyabrdagi «Nogironligi bo'lgan shaxslarni sportga jalb etish orqali jismoniy reabilitatsiya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-389-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-martdagi «O'zgalar parvarishiga muhtoj shaxslarga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatishning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida»gi 123-sonli Qarori.

4. Sherrill C. Disability and Sport: Psychological and Social Dimensions. – Champaign: «Human Kinetics», 2019.

5. Karimov A.A. Nogironlar sportida tayyorgarlik tizimini takomillashtirish masalalari. – Toshkent: «Fan», 2020.

6. O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish agentligi – Rasmiy hisobotlar va sport musobaqalari natijalari. Sayt: <https://sport.uz>

7. O'zbekiston Ko'zi ojizlar sport federatsiyasi – Golbol sporti bo'yicha nizomlar, musobaqa reglamentlari va yutuqlar. Sayt: <https://paralympic.uz>

8. Joqarg'i Kenges rasmiy portali – Qoraqalpog'istondagi sport maktablari infratuzilmasi haqidagi ma'lumotlar. Havola: <https://joqargikenes.uz>

9. Xalqaro Paraolimpik Qo'mitasi (International Paralympic Committee). –Golbol sportining xalqaro tarixi va qoidalari. Sayt: <https://www.paralympic.org/golball>

Qoraqalpog'iston jamoasining O'zbekiston chempionatlaridagi yutuqlari (2023-2024)

Yil	Musobaqa joyi	Toifa	Natija
2023	Toshkent	Erkaklar jamoaviy	1-o'rin
2023	Toshkent	Ayollar jamoaviy	2-o'rin
2023	Toshkent	Yakkalik (erkaklar)	Pazilbek Genjebaev 2-o'rin
2023	Toshkent	Yakkalik (ayollar)	Zaynab Dayibekova 2-o'rin
2024	Jizzax	Yoshlar jamoaviy	1-o'rin (Qoraqalpog'iston yoshlar jamoasi)

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog'iston Respublikasida golbol sportining rivojlanishi O'zbekiston Respublikasida nogironlar sportini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosatining amaliy samarasidir. Qabul qilingan qonun va qarorlar, sport infratuzilmasining rivojlanishi hamda malakali murabbiylar faoliyati sportchilarning yuqori natijalarga erishishiga xizmat qilmoqda.

Kelgusida golbol sportini yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ishlarni kuchaytirish maqsadga muvofiq:

- golbol sporti uchun maxsus sport inshootlari va jihozlar sonini ko'paytirish;
- barcha tumanlarda golbol seksiyalarini tashkil etish;
- murabbiylarning malakasini oshirish va xorijiy tajribani joriy etish;
- maktab yoshidagi nogiron bolalar o'rtasida musobaqalarni tizimli ravishda o'tkazish.

Golbol sporti nogiron yoshlarning jismoniy rivojlanishi bilan birga, ularning ijtimoiy faolligini oshiradi va jamiyatga to'laqonli integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu sport turini rivojlantirish ilmiy, tashkiliy va huquqiy jihatdan doimiy qo'llab-quvvatlanishi zarur.